

# Xalqaro kelishuvlar

[BoshBrendlar](#)Xalqaro kelishuvlar

“O‘zavtosanoat” AK quyidagi xalqaro bitimlarni tuzgan:

GM Daewoo Auto&Technology kompaniyasi va O‘zbekiston Respublikasi Hukumati o‘rtasida imzolangan o‘zaro strategik hamkorlik kelishuvi asosida «GM Uzbekistan» AJ tashkil etildi va yangi rusumli yengil avtomobillarni ishlab chiqarish imkoniga erishildi.

"Isuzu Motors" va "ITOCHU Corporation" bilan tuzilgan bitim asosida "SamAvto" MCHJ korxonasi Yaponiyaning avtobuslari va kichik hajmli yuk mashinalarini ishlab chiqarishni boshladi.

“MAN Truck&Bus AG” “MAN Group” konserni bilan tuzilgan halqaro bitim asosida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi "JV MAN AUTO UZBEKISTAN" MChJ korxonasi tashkil etildi va MAN yuk va tijorat texnikasini ishlab chiqarish boshladi.

Ikki hamkor kompaniyalar: «General motors» va «O‘zavtosanoat» AK ning o‘zaro sa'y-harakatlari natijasida Toshkentda dvigatel ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yangi «GM Powertrain Uzbekistan» zavodi tashkil etildi.

29.07.2015 yil. Yaponiya kompaniyasi «Isuzu Motors» “O‘zavtosanoat” aksiyadorlik kompaniyasi bilan Samarqand avtomobil zavodining ustav kapitalidan 8% ulushni o‘zlashtirish bo‘yicha kelishuv imzoladi.